

## UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA ONA TILI TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA STRUKTURAVIY YANGILIKLARI

Klaraxon Mavlonova

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
o'zbek tili va adabiyotini universiteti**

**O'zbek tili va uni o'qitish metodikasi kafedrası  
professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20812541>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitish sifatini oshirish, xalqaro andozalarga moslashtirish hamda ta'lim mazmunining uzviyligini ta'minlashga qaratilgan yangi Davlat ta'lim standarti (DTS) va Milliy o'quv dasturi loyihasining metodologik asoslari tahlil qilingan. Maqolada amaldagi o'quv dasturlari bilan taklif etilayotgan yangi tizim o'rtasidagi farqlar, fanga oid kompetensiyalarning qayta shakllantirilishi va ta'lim bosqichlarining xalqaro klassifikatorlar bilan muvofiqlashtirilishi masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat ta'lim standarti, Milliy o'quv dasturi, spiralsimon yondashuv, o'qish, tinglash va so'zlash, lingvistik ko'nikmalar, xalqaro standart, kompetensiya.

**Abstract.** This article analyzes the methodological foundations of the new State Educational Standard (SES) and the draft National Curriculum, which are aimed at improving the quality of teaching the native language in general secondary educational institutions, adapting it to international standards, and ensuring the coherence of educational content. The article highlights the differences between the current curricula and the proposed new system, the reformulation of subject-specific competencies, and the coordination of educational stages with international classifiers.

**Keywords:** State Educational Standard, National Curriculum, spiral approach, reading, listening, and speaking, linguistic skills, international standard, competency.

Globalashuv va raqamli texnologiyalar asrida har bir xalqning milliy o'zligini, madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolishida ona tilining o'rni beqiyos. O'zbekiston Respublikasida uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar sharoitida umumiy o'rta ta'lim tizimini tubdan yangilash, xususan, ona tili ta'limining mazmuni va sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Chunki ona tili shunchaki qoidalar yig'indisi emas, balki o'quvchining mantiqiy va kreativ fikrlashini, kommunikativ savodxonligini hamda ijtimoiy moslashuvchanligini shakllantiruvchi asosiy vositadir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda xalqaro tajribalarni milliy ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish maqsadida "Cambridge University Press & Assessment" tashkiloti ekspertlari bilan hamkorlikda umumiy o'rta ta'limning takomillashtirilgan Davlat ta'lim standarti (DTS) va Milliy o'quv dasturi loyihasi ishlab chiqildi.

**Ta'lim mazmunining uzviyligi va xalqaro muvofiqlik.** Yangi dasturning eng muhim xususiyatlaridan biri – maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi bosqichlarining uzviyligi va uzluksizligi to'liq qayta ko'rib chiqilganidir. Amaldagi tizimda dastur, darslik, dars va baholash elementlarining bir-biriga mos kelmasligi o'quvchilarda tizimsiz tushunchalar paydo bo'lishiga

olib kelayotgan edi. Yangi loyihada esa barcha ushbu elementlar yagona maqsadga xizmat qiladi, natijada aniq va mustahkam bilim poydevori yaratiladi.

Bundan tashqari, ta'lim bosqichlari o'quv dasturlari Xalqaro tasniflagich (ISCED–2011) mezonlariga muvofiqlashtirilib, boshlang'ich ta'lim (17 ta), tayanch ta'lim (25 ta) va o'rta ta'lim (22 ta) o'quv dasturlari qamrovi belgilab olindi. (Ushbu qamrov loyiha sifatida taqdim etilmoqda. K.M.)

**2. Metodologik tamoyillar.** Takomillashtirilgan dasturning asosi yettita fundamental metodologik asosga ega:

1. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim: bilim berish bilan cheklanib qolmay, uni hayotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

2. Universal ta'lim dizayni: har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olish.

3. Spiralsimon yondashuv: mavzu va maqsadlarning sinfdan sinfga o'tgan sari chuqurlashib va murakkablashib borishi.

4. Inklyuziv ta'lim va Gender tengligi: teng huquqlilik va imkoniyatlar yaratish.

5. Formativ baholash va havoz (Scaffolding): o'quvchini dars davomida qo'llab-quvvatlash va yo'naltirish.

**Fanga oid kompetensiyalarning yangi talqini.** Amaldagi dasturlarda ona tili faniga oid kompetensiyalar 5 tadan iborat edi (og'zaki nutq, tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozma nutq va lingvistik ko'nikmalar). Yangi taklif etilayotgan dasturda esa fanga oid kompetensiyalar 3 ta asosiy yo'nalishga jamlandi:

1. O'qish.

2. Yozish.

3. Tinglash va so'zlash.

Eng muhim o'zgarish shundaki, lingvistik (grammatik) ko'nikmalar alohida mavzular sifatida ajratilmasdan, balki o'qish va yozish kompetensiyalarini shakllantirish mazmuniga parallel va tizimli ravishda singdirildi. Bu o'quvchining qoidani yodlashini emas, balki til qoidalarini matn yaratish va tushunish jarayonida bevosita qo'llay olishini ta'minlaydi.

Takomillashtirilgan DTS va Milliy o'quv dasturi loyihasi ona tili ta'limini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Mavzular ro'yxatidan aniq va o'lchanadigan ko'nikmalarga o'tilishi, xalqaro ekspertlar ko'magida "Ish rejalari" va "O'qituvchi yo'riqnomasi"ning tayyorlanishi ta'lim sifatini boshqarishda yuqori samara beradi. Shunigdek, dasturning qadriyatlar tizimi (shaxsiy, ijtimoiy, fuqarolik, milliy, umuminsoniy) bilan integratsiyalashgani esa nafaqat savodxon, balki ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan.

Zamonaviy mehnat bozori va axborot makoni talablaridan kelib chiqqan holda ona tili ta'limini takomillashtirishning yangi metodologik asoslarini belgilash va tizimga strukturaviy yangiliklarni olib kirish bugungi kunning kechiktirib bo'lmas talabidir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent. 2020-yil, 23-sentyabr. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5013007#-5014174>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6854214>
3. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi. — Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021–2024.

4. Mavlonova K., Tursun Sh. Ona tili ta'limida grammatik yondashuv mohiyati. "Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari. – Toshkent, 2024. – 17–22-b.
5. Mavlonova K. Ona tili ta'limi mazmunidagi takomillashuv/ "Ma'rifat" gazetasi. – Toshkent, 2022. 29-son. – 2-3-b.
6. Pardosa C. D. A Scaffolding Approach to Tackling More Complex Reading Passages. <https://www.edutopia.org/article/teaching-nonfiction-text-elementary>.
7. <https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-lower-secondary/curriculum/english/?hl=ru-RU>
8. <https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-igcse-english-first-language-0500/?hl=ru-RU>